



## O'QUVCHILARGA O'QISH KITOBLARINI QANDAY TANLASH VA ULARDAN FOYDALANISH

**Yo'ldasheva  
Qizlarxon  
Murodjon qizi**

*Qo'qon Universiteti Boshlang'ich ta'lim  
yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

Abstract

Ushbu maqolada o'qish uchun kitoblarni qanday tanlash va ularning shartlari, xususiyatlari haqida tushunchalar berilgan. Ongli kitobxon qanday bo'lishi kerak, kitobxonlik madaniyati qanday shakllanishi haqida fikrlar ilgari surilgan. Kitob tanlash odobi, ko'nikmalari va yo'l-yo'riqlari xususida mulohazalar keltirilgan. Kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilganligi ko'rsatilgan.

**Keywords :**

kitobga qiziqish, kitobxonlik madaniyati, ma'naviy barkamollik, ilmi, ziyoli yoshlar, oilaviy muhit, oilaviy qadriyatlar, ma'naviy daraja

Jamiyat, millatning rivojlanishi, taraqqiy etish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bilimli, ma'naviyatli va ma'rifatli yoshlarining jamiyat yuksalishida o'rni beqiyos. Bunday yoshlarni barkamol etib tarbiyalovchi asosiy omillardan biri-mutolaa qilish vositasi kitob hisoblangan. Bizni yerdan ko'kka ko'taradigan, barkamollik sari yetaklaydigan, insonlar qalbiga yorug'lik va iliqlik kiritadigan, oq bilan qora, yaxshilik bilan yomonlik, vayronkorlik bilan bunyodkorlikning farqini ongli ravishda anglatishga yordam beradigan, insoniyat tomonidan yaratilgan eng noyob kashfiyot ham bu-kitobdir. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Yoshlar o'rtasida kitobxonlikni rivojlantirish doimiy e'tiborimiz markazida bo'ladi."<sup>1</sup> Bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar biz uchun ahamiyatlidir. Ayniqsa, yoshlarga keng imkoniyatlar yaratilgan. Kitobxonlik millat uchun muhim masala hisoblangan.

Kitob insonni ulug'laydi, Vatanni sevish, insonparvarlik, o'zi yashab turgan hayotga shukronalik hissi bilan qarash, boshqalarga mehr-muruvvatli va xushmuomala bo'lish, atrofdagi insonlarga yaxshilik ulashish kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalaydi. Kitobning inson hayotidagi ahamiyati beqiyos bo'lib, u inson umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, har qanday vaziyatda ham hamroh bo'lguvchi sodiq do'stdir. Shu jihatlarni hisobga olgan holda, bugungi kunda yoshlar va aholi o'rtasida kitobga bo'lgan qiziqish va kitobxonlik

<sup>1</sup> [https://uza.uz/oz/posts/shavkat-mirziyoyev-yoshlar-ortasida-kitobxonlikni-rivojlantirish-doimiy-etiborimiz-markazida-boladi\\_281090](https://uza.uz/oz/posts/shavkat-mirziyoyev-yoshlar-ortasida-kitobxonlikni-rivojlantirish-doimiy-etiborimiz-markazida-boladi_281090)

darajasini oshirish hamda kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Kitobxonlik amalda keng joriy etish jarayonida birinchi navbatda mavjud kutubxonalarni rekonstruksiya qilish, ularning moddiy-texnik bazasini yangilash, kerakli ilmiy va badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash, kutubxonalar faoliyatida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishimiz va undan samarali foydalanishimiz mumkin. Bu ishlarni amalga oshirilishi uchun zarur chora-tadbirlar belgilab berilgan va ularning ijrosi muntazam nazorat qilib borilmoqda.

O'quvchilarga fandan bilim berishda o'qituvchi foydalanadigan pedagogik vositalar xazinasida kitob muhim o'rin tutadi. Umumtexnika va maxsus fanlarni o'rganishga tatbiqan olganda kitob – asosiy darslik yoki o'quv qo'llanmasi, qo'shimcha adabiyot, spravochniklar, GOST jadvallari, har xil texnikaviy xujjatlar, maxsus jurnallar, ilmiy-texnikaviy axborot organlari hamda xizmatlarning nashrlari, ba'zi hollarda esa ilmiy-ommabop adabiyotdir. O'quvchilar kitobdan o'qituvchi darsda bayon etgan o'quv materiallarini mustahkamlaydilar va takrorlaydilar. Kitobda sinf va uyda echish uchun masalalar, javob berilishi lozim bo'lgan sinov savollari keltiriladi, tekstga oid rasmlar, mazmunini o'zlashtirib olish zarur bo'lgan jadvallar, sxemalar, grafiklar, diagrammalar beriladi. o'quvchilar o'qituvchining topshirigi bo'yicha kitobdan o'quv materialining muayyan qismini mustaqil o'rganadilar. Ammo kitobning o'quvchi, bo'lajak ishchi hayotidagi roli shu bilangina cheklanib qolmaydi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti asrida, ya'ni ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasi takomillashib borayotgan bir davrda malakali ishchi ilmiy-texnika adabiyotidan foydalanib, o'z bilimlarini to'ldirib borishi, barcha yangi, ilg'or narsalarni bilib olishi zarur bo'ladi. Shu sababli o'quvchida kitob bilan ishlay olish malakasi hosil qilish umumpedagogika muammosining-shaxs mustaqilligini rivojlantirishning bir qismi hisoblanadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, o'quvchilarning kitob bilan ishlashi, og'zaki bayon va suhbat bilan bir qatorda, yangi o'quv materialini bildirish metodlaridan biridir. Shu munosabat bilan, dars vaqtida og'zaki bayon va kitob bilan ishlash orasidagi nisbatni aniqlash muhimdir. Bu metodlar quyidagicha qo'shib olib borilishi mumkin: o'qituvchi butun o'quv materialini bayon etadi – o'quvchilar uni kitobdan takrorlaydilar va tushunib oladilar; o'qituvchi faqat asosiy masalalarni bayon etadi – o'quvchilar dasturda ko'zda tutilgan qolgan materialni mustaqil o'rganadilar; o'qituvchi o'quv materialini mazmuniga muqaddima va uni o'rganish metodikasini beradi – o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida, belgilangan reja asosida mustaqil ishlaydilar; o'qituvchi ishni tashkil etadi va yo'nalish beradi – o'quvchilar ko'zda tutilgan butun topshiriqlarni mustaqil bajaradilar.

O'qituvchi butun o'quv materialini bayon etadigan darslarni bu material mulaqo yangi, o'quvchilarning bilimi va amaliy tajribasi kam yoki o'quv materialining mazmuni qiyin bo'lgan hollarda o'tkazgan ma'qul.

O'qituvchi materialning mazmuniga muqaddima va uni mustaqil o'rganish metodikasigina beradigan darslar o'rganiladigan material o'quvchilarning bundan oldingi bilimlariga tayanadigan, ayrim topshiriqlarga oson ajraladigan va kabinetda zarur barcha o'quv qo'llanmalari bo'lgan hollarda o'tkaziladi.

O'quvchilar yangi materialni mutlaqo mustaqil ravishda kitobdan o'rganadigan darslar o'rganiladigan masalalar o'quvchilarning avvalgi bilimi va amaliy tajribasi

bilan uzviy bog'liq bo'lgan, yangi tushunchalar ilgari o'rganilgan materialdan kelib chiqadigan hollardagina qo'llaniladi.<sup>2</sup>

O'quvchilarning bilimlari bevosita kitobdan o'zlashtirishiga oid mustaqil ishlari darsda ham, uyda ham o'tkaziladi. Tabiiyki, o'quvchilarning yangi bilimlar o'zlashtirish uchun kitob bilan mustaqil ishlashini tashkil etishda, avvalo, o'quvchilarda ishning bu turiga oldindan tayyorgarlik bor-yo'qligi hisobga olinadi. O'quvchilarda muayyan bilim zapasi, kitob bilan ishlash o'quvi bo'lishi kerak. Shuning uchun materialni kitobdan mustaqil o'rganishni o'qitishning ancha keyingi bosqichlariga qo'yish lozim.

**Kitob tanlashda tarbiyaviy maqsad ko'zda tutiladi.** Bunda o'quvchilarga vatanimiz o'tmishi, mustaqillik uchun kurash, xalq qahramonlari, xalq turmushi haqidagi, oilada, maktabda va jamoat joylarida o'zaro munosabatlarda yuzaga keladigan axloqiy muammolar haqidagi, tabiat va uni asrabavaylash haqidagi kitoblar tavsiya etiladi.<sup>3</sup>

**Kitob tanlashda asarlar janri va mavzusining xilmaxilligi e'tiborga olinadi.** Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar, asosan, hikoyalar, ertaklar, she'rlar, topishmoqlar, naqollarni o'qishga qiziqqanlari uchun shu janrdagi asarlar tanlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Kitobning o'quvchilar yoshi va saviyasiga mosligi hisobga olinadi.** 1-sinfda kichik hikoya va ertaklarni o'qish tavsiya etilsa, 2-4-sinflarda mavzular doirasi kengaytirilib, kundalik turmushda ro'y berayotgan turli voqealar tasvirlangan asarlar, gazeta va jurnallardagi kichik hajmli xabarlarni o'qish ham tavsiya etilishi mumkin.<sup>4</sup>

**Xulosa qilib aytganda, kitob tanlashda o'quvchilarning shaxsiy qiziqishi va mustaqil o'qishi hisobga olinadi.** Bunda o'quvchilar o'ziga qiziqarli bo'lgan o'zbek va xorijiy bolalar adabiyoti yozuvchilarining asarlarini o'zi tanlashi muhim ahamiyatga ega. **Kitob tanlashda mavsumiy tamoyilga amal qilinadi.** Umuman olganda, kitobni to'g'ri tanlash sinfdan tashqari o'qish muvaffaqiyatini ta'minlashning muhim shartidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. N.N.Azizxo'jaeva «Pedagogik texnologiya va pedagogik mahoart». Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPU, 2003 y. 133-bet.
2. S. A. Akmalova. «Ta'lim nazariyasi didaktika masalalari bo'yicha o'quv kullanma». Namangan 1993 y. 90-bet.
3. K. J. Mirsaidov. «Maxsus fanlarni o'qitish va ishlab chiqarish ta'limi». Toshkent «O'qituvchi» 1996 y. 67-bet.
4. [https://uza.uz/oz/posts/shavkat-mirziyoyev-yoshlar-ortasida-kitobxonlikni-rivojlantirish-doimiy-etiborimiz-markazida-boladi\\_281090](https://uza.uz/oz/posts/shavkat-mirziyoyev-yoshlar-ortasida-kitobxonlikni-rivojlantirish-doimiy-etiborimiz-markazida-boladi_281090)

<sup>2</sup> N.N.Azizxo'jaeva «Pedagogik texnologiya va pedagogik mahoart». Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPU, 2003 y. 133-bet.

<sup>3</sup> S. A. Akmalova. «Ta'lim nazariyasi didaktika masalalari bo'yicha o'quv kullanma». Namangan 1993 y. 90-bet.

<sup>4</sup> K. J. Mirsaidov. «Maxsus fanlarni o'qitish va ishlab chiqarish ta'limi». Toshkent «O'qituvchi» 1996 y. 67-bet.